

## MUSIQIY MEROSIMIZ BASTAKORLIK IJODIGA KIRUVCHI “EY SARVIRAVON”

Andijon davlat pedagogika instituti

Musiqiy ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi

**Norinova Kamola Qudratbek qizi**

Antatsiya: Ushbu maqola bastakorlik ijodiy qo’shiqlarga kiruvchi “Ey Sarviravon” haqida.

Kalit so’zlari: Xalq qo’shig’I, madaniyat, ashula, ijrochilik, musiqa.

Musiqa madaniyati va uning hayotidagi o’rni.

Ключивые слова: Народный песний. Культура песна. Музыкальная общества.

Key words: Folk song. culture, singing. Singing. Performance, music

O’zbek xalqning musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi kasbiy musiqa xalq bastakorlik yo’llari, shuningdek folklor xavaskorlik musuqiy merosi singari shaklan va usluban bir biriga yaqin ijrochilik ko’rinishlari bir-birini to’ldirib keldi.

Qadim-ul ayyomdan soz va musiqa muqaddas sanalib kelingan. Dunyo soz tufayli yaralgan bo’lsa, inson ruxida jon musi qa yordamida kirgan “So’zda sexr bor, she’rda esa xikimat” degan xadis bejiz aytilmagan. Bunda biro lam mano bor.

O’tmishda qo’shiq matnini xalqning eng donishmand va mashxur shoirlari yozishgan eng go’zal va eng manoli eng tasirchan so’zlarni tanlab-tanlab yozishgan.

Qo’shiq aslida eng muxim tarbiya vositalaridan biri. Tarixdan ma’lum, ma’naviyat tilimizning asosiy bo’g’ini bo’lgan musiqa madaniyatimiz ananaviy qo’shiqlarimiz, maqom ijrolari xamisha xalqimizning kundalik xayotida manaviy

ozuqa sifatida etirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan xursandchilik kunlarida xam qo'shiq va musiqa ularga xamrox bo'lgan.

Qo'shiq aslida eng muxim tarbiya vositalaridan biri.

U odamni yashashga, kurashga mexnat qilishga ruxlantiribgina qolmay, ularni saviyasini ko'tarishi, manaviyatini boyitishi kerak. Ming yillar tajribasini o'zida jamlagan xalq qo'shiqlarining xam mazmuni chuqur xam ifoda tarsi go'zal, o'zining tabiiyligi va samimiyligi, tasirchanligi bilan yurakka kirib boradi. Lekin shularning ichida bir noyob meros bu sanatkorning odobi va madaniyatidir.

Bu ulkan meros san'at axlining eng yuqori cho'qqiga ko'targan, xalq orasida xurmat etiborini oshirgan.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi xozirgi kundalik xayotimizdan xam tushgani yo'q. u xalq ijodining yuksak namunalari, fol'klyor ijrochiligi xamda murakkab ijrochilar turkumi atalmish mano musiqasini o'z ichiga oladi.

Ashula, musiqa, raqs, fol'klor ijrochiligi san'atning paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy turlardan xisoblanadi. Ananaviy xonandalik kasbining nozik tomonlaridan biri bu nafas bilan bog'liq mezonlar ekanlik xonandalik uchun sir emas.

Musiqa, oxang, mumtoz navolar qadimdan bo'lgan xamda ustoz shogird tomonidan davom etib kelayotgan san'atdir. Qo'shiqlarimiz tarixiga bir nazar. Xalq qo'shiqlari uzoq tarixga ega.

Chunonchi turkiy xalqlar og'zaki ijodida, xatto, eramizdan avval xam qo'shiq janriga mansub asarlar borligi ma'lum.

Nisbatan keying namunalari esa Maxmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asaridan xam o'rin olgan.

Albatta, qadimgi xalq qo'shiqlarining xam eng go'zal namunalari ish –muxabbat mavzusi aks etgan lirik qo'shiqlardan ibirat. Chunki ularda etakchi maqsad inson tabiatidagi abadiy fazilat xisoblanishi muxabbat tuyg'usini ifodalash bilan uyg'unlashganidur.

Xalq qo'shiqlari ichida eng taniqlilardan bo'lgan “Ey Sarviravon” Nodira g'azaliga tegishlidir. Nodira juda ko'p she'rlar, g'azallar va bir qancha asarlari bilan o'z davrida xatto xozir xam musiqashunoslarni nomini zabt etib kelmoqda.

Nodira she'rlarida islom ruxi tasavvur ta'limi va xayot falsafasini chuqur idrok etgan xolda xayotga xamma vaqt umidbaxsh nigox, bilan qaraydi va undan yaxshilik urug'ini qidiradi. Shuning uchun xam g'azallaridan birida “Meni saltanat maskanida ko'rib, gumon etmang ayshu farog'at bilan” deydi.

Nodira fors-tojik tilida xam go'zal, ta'sirchan she'rlar yozgan. Ular xam mazmun va badiy maxorat jixatdan o'zbek tilidagi g'azallaridek yuksak darajada yozilgan bo'lib, shoira ijodini yana xam keng va to'laroq, o'rganishda muxim rol o'ynaydi. Nodira kuylagan muxabbat insonlar o'rtasidagi qalbning qalbg'a intilishi natijasida paydo bo'lgan sof, samimiy muxabbatdir.

Olibjanob tuyg'u bo'lishi bunday sevgining eng oliy xususiyati vafodorligini shoira ayniqsa baland ilxom bilan tarannum etdi. Nodira ijodiga bo'lgan qiziqishi shoira xayotlik davridayoq boshlangan. Mashxur shoira Dilshod (1800-1905) Nodiraga maxsus g'azallar bag'ishlab, uni “Ilm-izlab va nazm osmonining yulduzi, ushoqlari g'azalxon, shaxar sochuvchi bulbul” deb tariflaydi. Nodiraning nomi Komila bo'lib, Nodira uning abadiy taxallusidir.

Komila o'zining go'zalligi aql, odobi bilan mashxur bo'lgan edi. Shoira inson qadri qiymatini yuqori qo'ydi, uning ruxan boy va mazmundor bo'lishini kuyladi. Shuning uchun xam u insoniylik va muxabbatning mavjudligigina insoning xaqiqiy inson shox o'ldirish paytga tarakkum qilsa yo'q qoidayi ammu omon barcha abas.

Shoira asarlari rus va boshqa chet tillarga tarjima qilingan. G'azallari o'zbek maqollari va xalq kuylariga solingan.

O'zbekistonning shaxar va qishloqlarida ko'plab ko'chalar kinoteatr maktab va kutubxonalar Nodira nomi bilan yuritiladi.

Asarlari ichida mashxur bo'lgan "Ey Sarviravon" ashullasi O'zbekiston milliy musiqa merosida muxim o'rin tutadi. Bu ashulla xalq orasida keng tarqalgan bo'lib ko'plab mumtoz qo'shiqchilar tomonidan ijro etilgan.

Ashula muxabbat vafodorlik va sadoqat mavzusiga bag'ishlangan. Unda sevgilisiga bo'lgan. Intilishi sodiq qolishi g'oyalari ifodalangan.

"Ey Sarviravon" bastakorlik ijodiga kiradi. Bastakorlik ijodi bo'lmish "Ey Sarviravon" ni juda xam ko'p taniqli va xalq ardobi bo'lmish sanatkorlar xam ijro etishgan.

"Ey Sarviravon"

"Ey Sarviravon" Nadur hayoling,

Jon o'rtadi vadayi-visoling.

Payvasta duoying xayr etar meni.

Maqsudim erur sening kamoling.

Ushoqlaring g'aminda o'ldi

Yo'qdir sening zarrayi maloling.

Ey xasta ko'ngil firoq ichinda

Damurg'aliy qolmadi majoling.

Ey Nodira lofi ish urar seni,

Mashxuri xaloyiq o'ldi xoling.

“Ey Sarviravon” ni bastakori Saidjon Kalomov.

O‘zbekiston Xalq artisti keginchalik sozanda va bastakor Saidjon Kalomov. 20 sar o‘zbek musiqasiga tarixida yorqin iz qoldirdi.

O‘zbekiston bastakori uyushmasining a‘zosi bastakor Saidjon Kalomov. Klassik va zamondosh shoirlarning she‘rlariga turli mavzularda 200 dan ortiq qo‘shiqlar yaratdi.

O‘zbekiston radiosi qoshidagi cholg‘u ansanbilida naychi bo‘lib ishladi. 1932 yili musiqa texnikuymini bitirgach Farg‘ona viloyati musiqali drama teatriga musiqa rahbari etib tayinlandi.

(Farhod va Shirin) spetaliga kuy va ashulalar bastaladi.

1936 yili O‘zbekiston Davlat fiyarloniyasi ochilib To‘xtasin Jalilov rahbarligida ansanbil tashkil topishi kelgusi yilda Maskvada o‘tadigan O‘zbekiston adabiyoti va sanati 10 kunligiga tayyorgarlik ko‘rish munosabati bilan viloyatlardan ko‘zga ko‘ringan sozanda va xonandalar qatori Saidjon Kamolov xam mazkur ansanbilga ishga taklif qilinadi. 1932 yil Saidjon Kamolov O‘zbek davlat musiqali teatriga 1939 yilning iyun oyidan boshlab O‘zbekiston davlat opera va balet teatriga yakka namoz lavozimiga taklif qilindi. 1941 yilda Yangi yo‘l musiqali drama teatirning tashkil topishida taetirning musiqa rahbari Yunus Rajabiy o‘zi bilan taetirning musiqa rahbari Saidjon Kalomovni birga olib keldi.

Saidjon Kalomov juda ko‘p asarlar yaratgan va shu bilan birga 1950 yili (O‘zbekiston xalq artisti) faxriy unvon orden medallar bilan mukofatlandi.

Xulosa o‘rnida aytish joyizki “Ey Sarviravon” bastakorlik ijodi bo‘lib judaxam ko‘p yillardan buyun xalq orasida mashxurdir.

“Ey Sarviravon” taniqli va atoqli ijodkorlar tomonidan kuylangan va hozirgi kunda xam respublikamizning maktab va kollej oliy ta‘limlarda malakali ustozlar tomonidan yosh avlodga o‘rgatib kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

R.Abdullayev (O'zbek mumtoz musiqasi) T. (Yangi nashir)

Yu.Rajabiy (musiqa merosimizga bir nazar) T.1978

Yu.Rajabiy, I.Akbarov, (O'zbek xalq musiqasi)

Qodirov Davron Oltin meros ananaviy xonandalik

Komila Boriyeva ananaviy xonandalik.